



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANINING ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLARI VA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada geografiya fanini o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlarning mazmuni, ularning didaktik imkoniyatlari hamda o'quvchilarning geografik tafakkuri, fazoviy tasavvuri va ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron xaritalar, GIS elementlari, Google Earth dasturi, virtual sayohatlar va amaliy kuzatuvlar geografiya ta'limi samaradorligini oshirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchi faolligini kuchaytirish, mustaqil izlanish, tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, zamonaviy metodika, interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, GIS, Google Earth, sinkveyn metodi, elektron xarita, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The article examines the content of modern methodological approaches in teaching geography, their didactic potential and their role in developing students' geographical thinking, spatial imagination and ecological culture. Interactive methods, information and communication technologies, electronic maps, GIS elements, Google Earth, virtual field trips and practical observations are analyzed as tools for increasing the effectiveness of geography education. The article also highlights opportunities for strengthening students' activity, independent research, analytical thinking and problem-solving skills in the learning process.

Key words: geography education, modern methodology, interactive methods, innovative technologies, GIS, Google Earth, cinquain method, electronic map, learning effectiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются сущность современных методических подходов в преподавании географии, их дидактические возможности и роль в развитии географического мышления, пространственного воображения и экологической культуры учащихся. Интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, электронные карты, элементы ГИС, программа Google Earth, виртуальные путешествия и практические наблюдения анализируются как средства повышения эффективности географического образования. Особое внимание уделяется активизации учебной деятельности, формированию навыков самостоятельного поиска, аналитического мышления и решения проблемных ситуаций.

Ключевые слова: географическое образование, современная методика, интерактивные методы, инновационные технологии, ГИС, Google Earth, метод синквейна, электронная карта, эффективность обучения.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar mazmun jihatdan yangilanmoqda. Ayniqsa, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganuvchi geografiya fani o'quvchilarda keng dunyoqarash, ekologik mas'uliyat, fazoviy tasavvur, xarita bilan ishlash madaniyati va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois geografiya darslarini faqat tayyor ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklash zamonaviy ta'lim talablariga to'liq javob bermaydi. O'quvchi geografik bilimni o'zlashtirish bilan birga, uni hayotiy jarayonlarda qo'llay olishi, tabiiy muhitdagi o'zgarishlarni kuzatishi va ularga ongli munosabat bildira olishi zarur ^[1].

Geografiya ta'limida zamonaviy metodik yondashuvlar, avvalo, o'quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi. An'anaviy darsda o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lsa, zamonaviy yondashuvda u tashkilotchi, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va o'quvchi faoliyatini rag'batlantiruvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchi mustaqil izlanadi, xarita, jadval, diagramma, statistik ma'lumot va raqamli manbalar bilan ishlaydi, o'z xulosasini dalillar asosida himoya qiladi. Natijada geografiya ta'limi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy, amaliy va ijodiy rivojlantiruvchi jarayonga aylanadi ^[2].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy metodik yondashuv deganda dars mazmuni, metodlari, vositalari va baholash shakllarini o'quvchining shaxsiy faolligi, mustaqil fikrlashi hamda amaliy faoliyatiga yo'naltirish tushuniladi. Geografiya fanida bu yondashuvning ahamiyati yanada kuchliroq seziladi, chunki geografik bilimlar bevosita makon, vaqt, tabiiy resurslar, aholi, xo'jalik, ekologik xavfsizlik va hududiy rivojlanish kabi real hayot bilan bog'liq tushunchalarni qamrab oladi. Shuning uchun dars jarayonida nazariy ma'lumotni xarita, model, videomaterial, kuzatuv, loyiha va muammoli topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish muhimdir.

Kompetensiyaviy yondashuv geografiya ta'limining asosiy metodik asoslaridan biridir. Bu yondashuvda o'quvchi dars oxirida faqat mavzuni aytib bera olishi emas, balki geografik obyektни xaritada topishi, tabiiy jarayon sabablarini izohlashi, statistik ma'lumotlarni tahlil qilishi, hududiy muammo bo'yicha taklif bera olishi bilan baholanadi. Masalan, "Iqlim o'zgarishi" mavzusida o'quvchi harorat ko'rsatkichlarini solishtirish, yog'in miqdoridagi o'zgarishlarni grafikda aks ettirish, mahalliy ekologik muammolar bilan bog'lash va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday yondashuv geografiyani kundalik hayotga yaqinlashtiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ham geografiya o'qitish metodikasida muhim o'rin tutadi. Har bir o'quvchining qiziqishi, bilim darajasi, kuzatuvchanligi va ijodiy imkoniyati turlicha bo'lgani uchun darsda differensial topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kuchli o'quvchilar uchun tahliliy va loyiha xarakteridagi topshiriqlar, o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilar uchun esa xarita bilan ishlash, tushunchalarni moslashtirish, qisqa javobli savollar va ko'rgazmali materiallar samarali bo'ladi^[3].

Geografiya ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darsning ko'rgazmaliligi, tezkorligi va ta'sirchanligini oshiradi. Interaktiv doskalar, elektron xaritalar, multimedia taqdimotlari, videodarslar, onlayn testlar va GIS elementlari o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Xususan, elektron xaritalar yordamida relyef, iqlim, tuproq, suv havzalari, aholi zichligi va iqtisodiy rayonlar o'zaro qiyoslanadi. Bu esa o'quvchilarning fazoviy fikrlashini rivojlantiradi hamda geografik obyektlar o'rtasidagi aloqadorlikni tushunishga yordam beradi^[2].

Google Earth dasturidan foydalanish geografiya darslarini yanada hayotiy va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Dastur orqali o'quvchilar Yer yuzasining turli hududlarini masofadan kuzatadi, tog' tizmalari, daryo vodiylari, cho'llar, okean qirg'oqlari va shaharlarning joylashuvini real tasvirlar asosida tahlil qiladi. Masalan, "Materiklar va okeanlar", "Dunyo mamlakatlari", "Urbanizatsiya jarayonlari" yoki "Tabiiy resurslar geografiyasi" mavzularida Google Earth o'quvchilarga oddiy matn yoki statik xaritadan ko'ra aniqroq tasavvur beradi.

GIS texnologiyalari elementlarini maktab geografiyasiga mos darajada kiritish o'quvchilarda raqamli savodxonlikni ham rivojlantiradi. Albatta, maktab sharoitida murakkab professional dasturlarni to'liq o'rgatish maqsad qilinmaydi, biroq qatlamlar bilan ishlash, obyektlarni taqqoslash, masofa o'lchash, koordinatalarni aniqlash va mavzuli xaritalarni tahlil qilish kabi sodda amallar o'quvchilar uchun foydali bo'ladi. Bu ko'nikmalar kelgusida ekologiya, turizm, arxitektura, logistika, geodeziya va shaharsozlik kabi sohalarda ham zarur hisoblanadi.

Interfaol metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirib, ularda muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Geografiya darslarida "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat", "Fikrlar almashinuvi", "B-B-B", "Insert", "Sinkveyn", "Venn diagrammasi", "Case-study" kabi metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu metodlar mavzuni mexanik yodlashdan ko'ra, uni anglash, muammo sifatida ko'rish va dalillar asosida izohlashga yo'naltiradi^[4].

"Debat" metodi geografiya darslarida ayniqsa samarali hisoblanadi, chunki ko'plab geografik mavzular turli nuqtayi nazardan tahlil qilishni talab etadi. Masalan, "Sanoat rivojlanishi ekologik muhitga qanday ta'sir ko'rsatadi?", "Urbanizatsiya ijobiy jarayonmi yoki muammomi?", "Suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy manfaat va ekologik mas'uliyat muvozanati qanday bo'lishi kerak?" kabi savollar debat uchun qulaydir. O'quvchilar bu jarayonda o'z pozitsiyasini himoya qiladi, qarshi fikrni tinglaydi, dalil keltiradi va madaniyatli muloqot qilishni o'rganadi.

"Sinkveyn" metodi mavzuni qisqa, lo'nda va mazmunli umumlashtirishga xizmat qiladi. Besh qatordan iborat bunday topshiriq o'quvchidan tushunchani anglash, asosiy belgilarini ajratish, harakat yoki jarayonni ifodalash hamda umumiy xulosa chiqarishni talab qiladi. Masalan, "Daryo" mavzusida o'quvchi daryoning belgilarini, harakatini va ahamiyatini qisqa fikrlar bilan ifodalaydi. Bu metod mavzuni yakunlash, mustahkamlash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda qulaydir.

"Klaster" metodi geografik tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishda foydalidir. Masalan, "Iqlim" tushunchasi atrofida harorat, yog'in, shamol, havo massalari, geografik kenglik, okean oqimlari, relyef va inson faoliyati kabi omillar joylashtiriladi. O'quvchilar shu orqali iqlimning ko'p omilli hodisa ekanini anglaydi. "Case-study" metodi esa real geografik muammo asosida tahlil qilishni o'rgatadi. Masalan, "Hududda suv tanqisligi yuzaga keldi: qanday chora ko'rish mumkin?" degan vaziyatda o'quvchilar iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yechimlarni izlaydi.

Geografiya fanining o'ziga xosligi shundaki, undagi bilimlar tabiat va jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq. Shu sababli amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar, joylarda kuzatuvlar, maktab hududida kichik tadqiqotlar o'tkazish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilar maktab hovlisida ob-havo elementlarini kuzatishi, shamol yo'nalishini aniqlashi, mahalliy relyef shakllarini tasvirlashi, tuproq holatini taqqoslashi yoki yaqin hududdagi ekologik muammolarni o'rganishi mumkin. Bunday faoliyat nazariy bilimni hayotiy tajriba bilan bog'laydi.

Tabiat qo'ynida o'tkaziladigan geografik ekskursiyalar o'quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Daryo vodiysi, tepalik, jarlik, kanal, bog', aholi punkti yoki ishlab chiqarish obyekti misolida o'quvchilar geografik jarayonlarning real namoyon bo'lishini ko'radi. Masalan, daryo qirg'og'idagi yemirilish jarayoni yoki relyefning xo'jalik faoliyatiga ta'sirini bevosita kuzatish orqali mavzu chuqurroq anglanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga kuzatuv varaqasi, xarita chizmasi, savollar va xulosa yozish topshirig'ini berishi mumkin.

Amaliy topshiriqlar o'quvchilarda mas'uliyat, aniqlik va dalilga tayanib fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Xususan, statistik jadval asosida aholi soni o'sishini tahlil qilish, yog'in miqdori bo'yicha diagramma tuzish, iqlim xaritasidan foydalanib hududlarni taqqoslash yoki tabiiy resurslar taqsimotini baholash o'quvchini faol bilish jarayoniga olib kiradi. Shu jihatdan geografiya darslari o'quvchini nafaqat fan bo'yicha bilimli, balki hayotiy muammolarni tushunadigan shaxs sifatida tarbiyalaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan ta'lim yondashuvlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida geografiya ta'limiga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari hamda zamonaviy metodik manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, geografiya fanini o'qitishda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, GIS elementlari, Google Earth dasturi va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish bo'yicha ilmiy qarashlar qiyosiy o'rganildi.

Tadqiqotning empirik qismida pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnomalar va qiyosiy tahlil metodlari qo'llanildi. Geografiya darslarida zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish jarayoni kuzatilib, o'quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, xarita bilan ishlash malakalari va geografik tafakkurining rivojlanish darajasi tahlil qilindi.

Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar ("Debat", "Klaster", "Sinkveyn", "Case-study"), elektron xaritalar, multimedia vositalari va Google Earth dasturidan foydalanishning o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar an'anaviy va zamonaviy metodlar asosida tashkil etilgan darslar samaradorligini qiyoslash orqali baholandi.

Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar pedagogik tahlil va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, geografiya ta'limida zamonaviy metodik yondashuvlarning afzalliklari hamda ularni amaliyotga samarali joriy etish imkoniyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Geografiya ta'limida zamonaviy metodik yondashuvlarning samaradorligi bir nechta mezonlar orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, chunki ular mavzuni ko'radi, taqqoslaydi, muhokama qiladi va amaliy faoliyatda sinab ko'radi. Ikkinchidan, bilimning mustahkamligi oshadi, chunki o'quvchi tayyor ma'lumotni eslab qolish bilan cheklanmay, uni o'z tajribasi orqali anglaydi. Uchinchidan, tanqidiy va tahliliy fikrlash rivojlanadi, chunki geografik jarayonlar sabab-oqibat munosabatlari asosida o'rganiladi (1-jadval).

1-jadval: Geografiya darslarida qo'llaniladigan ayrim metodik yondashuvlarning ta'limiy natijalari

Metodik yondashuv	Qo'llash shakli	Rivojlantiriladigan ko'nikma	Kutiladigan natija
Interfaol metodlar	Debat, klaster, sinkveyn, case-study	Muloqot, tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarish	O'quvchi faolligi va mavzuni anglash darajasi oshadi
Raqamli texnologiyalar	Elektron xarita, Google Earth, multimedia	Fazoviy tasavvur, raqamli savodxonlik, tahlil	Geografik obyektlar real tasvir asosida tushuniladi
Amaliy mashg'ulotlar	Kuzatuv, ekskursiya, xarita bilan ishlash	Kuzatuvchanlik, dalilga asoslanish, amaliy fikrlash	Nazariy bilim hayotiy tajriba bilan bog'lanadi
Muammoli ta'lim	Ekologik, demografik yoki iqtisodiy vaziyat tahlili	Muammoni ko'rish, yechim taklif qilish, qaror qabul qilish	O'quvchi mustaqil va mas'uliyatli fikrlashga o'rganadi



Jadvaldan ko'rinadiki, har bir metodik yondashuv o'ziga xos didaktik vazifani bajaradi. Interfaol metodlar o'quvchilarning nutqiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirs, raqamli texnologiyalar mavzuni ko'rgazmali va aniq tasavvur qilishga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlar esa o'quvchining bilimini real hayot bilan bog'laydi. Muammoli ta'lim o'quvchilarni sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilishga, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ekologik mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Samaradorlikni baholashda faqat test natijalariga tayanish yetarli emas. Geografiya darslarida o'quvchining xarita bilan ishlash darajasi, mavzuli xaritalarni o'qiy olishi, hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishi, guruh ishida faol qatnashishi va mustaqil xulosa bera olishi ham hisobga olinishi lozim. Shu maqsadda reytingli baholash, o'zaro baholash, portfel, loyiha ishi, og'zaki taqdimot va kuzatuv varaqalaridan foydalanish mumkin. Bunday baholash shakllari o'quvchining bilimini har tomonlama aniqlashga yordam beradi.

Zamonaviy geografiya darsi o'qituvchidan puxta tayyorgarlik, metodik moslashuvchanlik va ijodkorlikni talab etadi. O'qituvchi dars mavzusini o'quvchilarning yosh xususiyati, mavjud texnik imkoniyat, hududiy sharoit va dars maqsadiga mos holda rejalashtirishi kerak. Har bir interfaol metod yoki raqamli vosita o'z-o'zidan natija bermaydi; u aniq didaktik maqsadga xizmat qilgandagina samarali bo'ladi. Masalan, Google Earth dasturini faqat tasvir ko'rsatish uchun emas, balki obyektlarni qiyoslash, masofa aniqlash yoki joylashuv sabablarini tushuntirish uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, o'qituvchi darsda o'quvchilarning mustaqil fikrini qo'llab-quvvatlashi, savol berishga undashi va xatoni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishi lozim. O'quvchi o'z fikrini erkin bildirgan, xarita va dalillar asosida xulosa qilgan, guruh bilan hamkorlikda ishlagan muhitda bilim yanada mustahkamlanadi. Bunday darslarda o'qituvchi nazorat qiluvchi shaxsdan ko'ra, o'quvchi faoliyatini yo'naltiruvchi pedagog sifatida ko'proq namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Geografiya ta'limida zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish, ularning geografik tafakkuri, fazoviy tasavvuri, ekologik madaniyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, raqamli texnologiyalar mavzuni ko'rgazmali va tushunarli qiladi, amaliy mashg'ulotlar esa nazariy bilimni hayotiy tajriba bilan bog'laydi.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, geografiya darsining samaradorligi metodlarning ko'pligida emas, balki ularning maqsadga muvofiq tanlanishi va uyg'un qo'llanishidadir. O'qituvchi darsda xarita, raqamli vosita, muammoli vaziyat, guruhli faoliyat va amaliy kuzatuvni bir-biri bilan bog'lay olsa, o'quvchilarda fan bo'yicha barqaror qiziqish paydo bo'ladi. Natijada geografiya ta'limi o'quvchilarga tayyor bilim beradigan jarayon emas, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni anglaydigan, ekologik mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradigan ta'limiy-tarbiyaviy tizimga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shadiyeva N.Sh. Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi. - Buxoro: BuxDU, 2022. - 156 b.
2. Vaxobov X., Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o'qitish metodikasi. - Toshkent: Nodirabegim, 2021. - 240 b.
3. Mirzamahmudov O.T. Geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish. - Namangan: NamDU, 2019. - 96 b.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017. - 416 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.